

QIZBIBI-HAZRAT OG'OYI BUZURG QADAMJOSI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyati Jondor tumani Ibn Sino mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan, XVI asrda bunyod etilgan Hazrat Og'oyi Buzurg qadamjosi va uning hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'rni ilmiy manbalar va asarlar asosida atrolicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qizbibi, Og'oyi Buzurg, qadamjo, xonaqoh, masjid, chillaxona, etikofxona, hujra, quduq, ayvon.

О СВЯЩЕННОМ МЕСТЕ КИЗБИБИ ХАЗРАТ ОГОЙИ БУЗУРГ

Аннотация. В данной статье подробно освещается на основе научных источников и трудов расположенный на территории Ибн Сина Махалла Джандорского района Бухарской области, построенный в XVI веке мавзолей хазрат-аги бузург и его роль в историко-культурных процессах до настоящего времени.

Ключевые слова: Кызбibi, Огой Бузург, ступенька, ханака, мечеть, чиллахана, этикофхона, хужра, колодец, айван.

ON THE SACRED SITE OF QIZBIBI HAZRAT OGOYI BUZURG

Annotation. in this article, Ibn Sina mahalla of Jondor District of Bukhara region is located on the territory of the Citizens Assembly, built in the 16th century Hazrat Oghoyi buzurg step and its place in the historical-cultural processes up to the present period are highlighted in atrolysis on the basis of scientific sources and works.

Keywords: Qizbibi, Og'oyi Buzurg, step, mosque, chillaxona, etikofxona, hujra, well, porch.

Mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichida milliy an'ana va qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, ajdodlarimiz xotirasini ulug'lash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish, tabarruk, muqaddas qadamjolar hamda ziyoratgohlarni obodonlashtirish, ularning musulmon olamida nufuzini yanada oshirish borasida keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

Buxoroi sharif - tarixi uch ming yilga borib taqaluvchi, o'rta asrlardan boshlab jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shgan davlat poytaxti, Movarounnahr uzra islom nurini baland sochgan minora, ilm-fan, dinu-diyonat, madaniyat va ma'rifat markazi bo'lib kelgan sharif shaharlardan biri hisoblanadi. Qubbatul Islom degan unvonga sazovor bo'lgan ko'hna va boqiy Buxoro zaminida minglab ilm peshvolari dunyoga kelgan. Ushbu maskanda islom dini va madaniyati yuksak darajada rivojlandi. Buxoroda masjidida madrasalar barpo etilib, unda diniy urfon, dunyoviy ilmlar chuqur o'rgatila boshlandi.

Qiz bibi asli ismi Masturaxonim bo'lib Qizbibi (qizlarni tarbiyalovchi tarbiyachi), Og'oyi Buzurg (shaxsni ulug'lash uchun berilgan taxallus). Bir rivoyatda otasi Abu Said, onasi Bibi Sharifa asli bu yerlik bo'lmagan (Nosiriddin To'ra "Tuhfatul zoirin").

XVI asrdan - XVIII asrgacha mazkur maskanda faqatgina qizlar, ayollar ta'lim olishgan. XVIII-XIX asrning 20 yillarigacha o'g'il bolalar, erkaklar ham ta'lim olishganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Qizbibi tarixiy memoriy obidasi hududiga yaqin qishloq Qazoqon deb nomlangan (aslida toponomiyasida "Qozikon" - maskanda o'sha davrda adliya vakillari ta'lim oluvchilar maskani sifatida e'tirof etilgan). XVIII-XX asrlarda qozilar tayyorlash - fiqf maktabining nufuzli ta'lim markazlaridan biri bo'lgan. Maskandagi talabalar yotoqxonasi

devor g'ishtlaridagi yozuvlar tahliliga e'tibor qaratilsa, hududda boshqa shaharlardan ham kelib fiqf sohasi bo'yicha ta'lim olgan tolibi ilm vakllari bo'lganliklarini e'tirof etish mumkin (Samarqand va boshqa shaharlardan talabalar bo'lgan).

XX asrning 20 yillarida bu muqaddas qadamjoda mullo Qurbon mutavalli bo'lib xizmat qilganlar. Maskanning oxirgi imom-xatibi Vali Eshoni Olamiyon [2.4.6.7] (bu ulug' zotning asl ism-shariflari Abduqodir) bo'lganlar. XX asrning 30-40 yillaridagi qatag'onlik siyosati natijasida barcha maskan vakillari quvg'in qilingan, ziyoratgoh yopib qo'yilgan.

Maskandagi oqava suv yo'llarini ta'mirlashda binoning tagidan yerosti suv chiqarish yo'li, tarnovlar tizimi shakllantirilganligi qayta ta'mirlash jarayonida topilgan. Majmuaning barcha binolarining pol qismi g'ish terilgan bo'lib, 2000-yildagi qayta qurish ishlari jarayonida taxtapol qilingan.

Chillaxona bino tashqarisida bitta masjid shimoli - sharqidan minorachani tagida. Etikofxona (ollohdan so'ragan narsasini olmasdan ketmaydi).

Majmuada 28 ta hujra mavjud bo'lib, masjidning shimoliy qismida joylashgan hujjatlar ilm oluvchi ilmu-toliblar uchun mo'ljallangan bo'lsa, hujralarning qolganlari esa madrasa mudarrislariga birlashtirilgan. Masjid dars o'tiladigon xona vazifasini bajargan. Besh vaqt namoz paytida esa ibodat qilingan, qolgan vaqt reja asosida dars mashg'ulotlari o'tkazilgan [3.9.].

Dars usuli Xatmul kitob deyilgan (dars tizimidagi har bir fan yoki kitob o'qib o'zlashtirilib, keyin ikkinchi fanga yoki kitob o'zlashtirilishiga o'tilgan). Talabalarning iqtidoriga qarab darslar o'tilgan (qaysidir talaba o'zlashtirishi kamroq yoki aksincha ko'proq o'zlashtirishi). Bu maskandagi barcha o'quv-ilmiy kitoblar, manbalar sovet hokimiyatining dastlabki davrlardayoq siyosiy bosimlar natijasida yo'qotilgan.

XVI asrda bu mo'tabar joy haramxona (erkaklar kirishi man etilgan) yoki "Baytul haram" deyilgan. Masjidning g'arbiy tomonida yopiq turdagi hojatxona, tahoratxona shu oraliqda tashqariga kirib chiqish uchun eshik bo'lgan (xo'jalik ishlariga doir mahsulotlarni olib kirish uchun, Bu mahsulotlarni asosiy eshikdan olib kirlmagan. Maqsad dars yoki e'tiqodiy jarayonlarga xalaqid qilmaslik maqsadida), quduq, go'lax (olov yoqiladigan joy) keyin hammom bo'lgan (yoqilgan olov hammomni pastdan yani pol qismidan isitib borgan). XVI asrlarda ham hozirgi davrdagi uslubda hammomni isitish tizimi sopol quvurlari orqali shakllantirilgan. Keyingi davrlardagi ta'mirlanish jarayonlari natijasida xo'jalik ishlarida foydalanilgan eshik yopilgan, olovxona va hammom tizimi ishdan chiqib suv oqib o'tuvchi yo'llar yopilib ketgan.

XX asrning 20-30 yillaridagi siyosiy jarayonlar maskan atrofidagi aholining bu yerdan ko'chib ketishiga majbur etilganligi, shuningdek kolxozlashtirish davrida qadamjo binolarining bazi joylari buzilib, qurilish materiali sifatida boshqa hududlardagi bino qurilishi ishlrida foydalanilgan.

Hazrat Qizbibi me'moriy majmuasini tarixiy obida sifatida XX asrning 30 yillaridan boshlab arxeologik ilmiy izlanishlar davomida tadqiq etilgan. Bu me'moriy majmua haqida dastlabki ma'lumotni 1938-1039 hamda 1947-yillarda Buxoro vohasida juda keng ko'lamli arxeologik tadqiqodlar olib borgan rus olimi Vasilij Afanasevich Shishkin[7] bergan. Shuningdek, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimlari Ya.G'ulomov, K.V.Trever, S.P.Tolstovlar ham bu tadqiqot ishlarida faol ishtirok etganlar. V.A.Shishkin olib borgan arxeologik ilmiy tadqiqodlari natijasi sifatida 1963-yilda Moskvada "Varaxsha" [1] nomli kitobini nashr qildiradi. Mazkur kitobda Qadimgi Varaxsha shahri va uning atrofidagi tepaliklar haqida atroflicha ilmiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birgalikda, mazkur kitobda muqaddas qadamjolar, avliyolar Hazrat Xo'ja Ubbon va Hazrat Og'oyi Buzurg haqida ham anchagina ma'lumotlar uchraydi.

Olim tadqiqotida ushbu ob'yektlarni qadamjo sifatida emas, balki barpo etilgan inshootni tarixiy obida, arxitektura majmuasi sifatidagi holati hamda tarixi haqida fikr yuritgan. Jumladan, mazkur manbada: "Hazrati Qizbibi mozori Qal'ayi Mallabekdan uch kilometr shimolda joylashgan. Bu bino qurilishi Hazrati Xo'ja Ubbon mozori binosiga o'xshaydi, har ikkala bino chiroyli va qiziqarli arxitektura yodgorligi majmuasidir". XVIII asrda bunyod etilgan bu binoning keng hovlisi, devorlari pishiq g'ishddan qurilgan hujra-xonalar bilan janub, g'arb va shimol

tomondan o'rab olingan, hujralar gumbazli, eshiklari tashqariga ochiladigan, arkali peshtoqchalardan iborat. Majmuaning g'arb tomonida sharqqa qaragan, pishiq g'isht bilan qurilgan katta masjid bor. Masjidning old tomoni "guldasta" shaklidagi ikki minoracha bilan bezatilgan. Masjid binosi chiroyli yelkan shaklidagi gumbaz bilan yopilgan. Masjidning janubida yog'ochdan qilingan ayvon mavjud. Masjidning qarama-qarshisida hamma tomonlari yopiq mozar binosi, bu bino o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, tepasi gisht bilan tutashtirilgan masjid.

Ayvon shipi yog'och o'ymakorligi bilan ishlangan yig'ma bo'laklardan iborat, yig'ma bo'laklar oyna bilan bezatilgan. Unda marmar tosh ham bo'lib, "Oyat ul - kursi" va "Ixlos" suralari bitilgan yozuv bor. "Bu muqaddas Ulug' Og'oyi Buzurg qabri" 1231 hijriy (1815-1816 yillar) Ollohning quli, Niyoz Muhammad kotib tomonidan yozildi", deb raqamlangan", - deyiladi V.A.Shishkinning "Varaxsha" kitobida[1.3.8.].

Hazrat Og'oyi Buzurg me'moriy majmuasi 1930-90 yillarga qadar Jondor tuman O'rmon xo'jaligi (Lesxoz) tashkiloti tarkibiga birlashtirilib bino hududidagi xonalarda xo'jalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan o'mon xo'jaligi uchun zaruriy o'simliklarning urug'lari saqlangan hamda sharqiy qismida ko'chatlarni ko'paytirish yer maydoni ham tashkil etilgan.

XX asrning 30-70 yillarida mazkur hududlar Buxoro viloyati Romitan tumaniga qarashli yerlar hisoblanib, o'sha atrofdagi yerlar saksovul va begona o'tlar o'sib ketgan chakalakzorlarga aylangan bo'lib, tumandagi yerlar sugo'rilgandan so'ng, ortiqcha suvlar shu hududlarga oqizib yuborilgan. 1970-80 yillarda ushbu hududlarda yangi yerlar ochilganligi natijasida Andijon sovxosi tashkil etilgan, zahkashlar (kolektor) qozilib paxta va donli ekinlar, uzumzor va mevali bog' maydonlari shakllantirilgan.

XX asrning 80-90 yillarida milliy o'zlikni anglash, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar va tarixiy maskanlarga bo'lgan munosabatlar o'zgarib, mazkur maskanlarni ta'mirlash, asl holiga aylantirish bo'yicha atroflicha ishlar amalga oshirildi. Jondor tuman hokimi Hamro Temirovich Rahmonov (1988-89) hududni ta'mirlash ishlarini boshlab yuborgan shaxs sifatida tilga olinadi[9].

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, bu jarayonlar yanada jonlandi. Jondor tuman hokimining "Qizbibi tarixiy ziyoratgohini ta'mirlash va obodonlashtirish to'g'risida"gi qarori hamda farmoyishlari asosida majmuada ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Jondor tuman hokimlari Mavlon Rahmonov, Baxshillo Obidovlar tashabbusi va rahbarligi ostida Qizbibi maskanida hashar yo'li orqali ta'mirlash ishlari olib borildi. Shu davrlar mobaynida maskanga BMTning O'zbekistondagi vakili Xolid Malik ham tashrif buyurgan. Shuningdek, 2007 yilda tuman hokimi Xolmurod Jalilovich Jumaboyev davrida masjidning ayvoni qayta restavratsiya qilindi[9]. Tadbirkor Karim Raximov qadamjodagi hovuzni qurdirdi. Qadamjoning g'arbiy qismi yo'l bo'yidagi mehmonxonani saxovatpesha inson Qayim Salomov bunyod etgan. Hozirgi davrda tuman hokimi vazifasida faoliyat olib borayotgan Jamshid Rajabovich Xudoyqulov rahnamoligida masjidga kirish joyidagi bisetka (usti yarim ochiq dam olish joyi) qurildi. Madaniy meros agentligining 2024-2025 yillardagi smetasi asosida muqaddas qadamjoni ta'mirlash va obodonlashtirish uchun 1 milliard 200 million so'm miqdorida mablag' ajratildi.

Ulug' qadamjo, ziyoratgohlarni obod qilish, tariximizni chuqurroq o'rganish va teranroq anglash, yoshlarimiz tafakkurini yanada yuksaltirish, ma'naviyatini boyitish, ming yillardan buyon qon-qonimizga singib ketgan dinu-diyonatni, urf-odat-an'analarni, ezgu amal-udumlarni davom ettirish, xalqning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz lozim. Chunki tarix xalqimiz ma'naviyatining asosi sanalib, uni avaylab-asrashga har birimiz mas'ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. В.А.Шишкин. Варахша. М.,1963.
2. Нарзулла Йўлдошев. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи.Бухоро. 1993.
3. Елизавета Некрасова. Кыз-Биби // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь, том 1. – Москва: "Восточная литература", 2006.
4. Ҳ.Асадов. Беш мўжиза-беш тарих.Бухоро. 2008.
5. Ҳ.Асадов. Аждодлари қимматли юрт. Бухоро. 2011.

6. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари.Т.2015.
7. Т.Раҳмонов. Қизбиби – ҳазрат оғойи бузург (маърифий – тарихий рисола).Тошкент., 2017.
8. Насир ад-Дин ал-Ханафи ал-Хасани ал-Бухари. Тухфат аз-зоирин (“подарок паломникам”) перевод с таджикско-персидского, предисловие и комментарии-Халим Тураев. Тошкент.2021.
9. Dala tadqiqotlari (Qizbibi qadamjosi Imom – xatibi Sobir Raximov). 2025.